

## NOMA'LUM SONNI TOPISHGA DOIR MISOL VA MASALALAR

*Tashbayeva Muxayyo Abdukarimovna*

*Namangan viloyati Mingbuloq tumani 2-umumiy o'rta ta'lim  
maktabining matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu dars ishlanmada 2-sinf o'quvchilariga matematika fanidan "Noma'lum sonni topishga doir misol va masalalar" mavzusida bir soatlik ochiq dars ishlanma zamonaviy texnologiyalar asosida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** masala, misollar, noma'lum, shakllar, raqamlar, materiallar, usullar.

**Noma'lum sonni topishga doir misol va masalalar****Dars maqsadi:**

- noma'lum songa doir misol va masalalar yechish;
- bunda qulay va oson usullardan foydalanish.

**Asosiy tushunchalar**

- ma'lum va noma'lum sonlar;
- had nomlari.

**Didaktik materiallar**

- sonli kartochkalar (har bir o'quvchi uchun)
- 100 gacha bo'lgan sonlar jadvali (har bir o'quvchi uchun)

**DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI**

T/R	Darsning bosqichlari	Dars vaqti taqsimoti
1	KIRISH QISMI	5 daqiqa
2	ASOSIY QISM	40 daqiqa

**Darsning borishi.**


**KIRISH** 5 daqiqa

**KUN MASHQI** 3 daqiqa

**Mashq:** noma'lum sonlarni topishga doir misollarni yechish.

Kelin, bugun biz noma'lum sonlarni topishga doir misollarni yechishni mashq qilamiz. Bo'sh kataklarga qaysi sonlar mos keladi?

Doskaga ushbu piramidaga o'xshash chizma chiziladi. O'quvchilardan bo'sh kataklarda qanday sonlar turishi kerakligini aniqlashni va sonly kartochkalarda ko'rsatish so'raladi. ( $10+10=20$ ,  $10+16=26$ ,  $20+26=46$ )



Bugungi darsimizda o'quvchilar 3 guruhga bo'lingan holda bilimlarini sinovdan o'tkazadilar.

1-guruh:

“Matematiklar”

2-guruh:

“Ixtirochilar”

3-guruh:

“Olimlar”

Guruh a'zolari har bir to'g'ri javob uchun rag'batni qo'lga kiritadilar va o'z guruhlarini uchun ajratilgan sandiqqa soladilar. Dars oxirida sandiqchadagi rag'batlar sanalib, g'olib guruh aniqlanadi va o'quvchilar baholanadi.



### ASOSIY QISM 40 daqiqa

#### Misolni ko'rsatish va mustaqil ish 5 daqiqa

Bugun biz siz bilan noma'lum sonni topishga doir misol va masalalar yechamiz.

Doskaga boshqotirmani yozing. O'quvchilarga boshqotirmani yechishda shakllarga noma'lum sifatida qarashni hamda boshqotirmadagi ma'lum va noma'lumlarga e'tibor qaratish lozimligini ayting.



#### Muhokama 15 daqiqa

#### 1-QISM O'quvchilar javoblari bilan o'rtoqlashadilar.

Kamida 3 nafar o'quvchidan sinfga javoblarni topish jarayonini tushuntirishini so'raladi.

Boshqotirmaning javobi nima?

Javobni qanday topdingiz?

Tushuntiring.

**Tushuntirish modeli. “Shakllar tilga kirganda” usuli orqali tushuntirish modeli bajariladi.**

Noma'lum sonlar bilan yassi shakllar o'zaro bog'liq. Ikkita ma'lum soni bor misol birinchi yechiladi. Bir xil shakllar bir xil sonni ifodalaydi.


Demak, kvadrat-0

trapetsiya-8

doira-6

uchburchak-7

sonlarni ifodalaydi.



**O'quvchilarga to'g'ri javob berish va xatoni tushuntirishda yordam bering.**

## 2-QISM: Misol va yangi topshiriq

### Muhokama mavzusi

-Noma'lum sonni topishga doir misol va masalalar yechish.

“Qaysi biri noma'lum” didaktik o'yini orqali yangi mavzu tushuntiriladi.

Doskaga misolni yozing. O'quvchilarga noma'lum qo'shiluvchi va kamayuvchi topish kerakligini ayting.

Misolni o'quvchilarning tasnifiga asoslanib tushuntiring.

$$40 \times \underline{\hspace{2cm}} \times 56$$

$$\underline{\hspace{2cm}} - 20 = 21$$

### Keling, yana boshqa misollarni yechaylik.

Birinchi misoldagi noma'lum qo'shiluvchini topish uchun biz yig'indi -56 dan ma'lum qo'shiluvchi -40 ni ayiramiz.

$$56 - 40 = 16$$

Ikkinchi qo'shiluvchi 16 ga teng.

Endi topilgan sonni noma'lum bo'lgan son o'rniga qo'yib tekshiramiz:  $40 - 16 = 56$ .

Javob to'g'ri.

### Amaliy topshiriq 15 daqiqa

- O'quvchilarga 1-3-topshiriqlarni bajarishni ayting.

**1-topshiriq:** Berilgan misollarni yeching. Noma'lum sonlarni ma'lum sonlar orqali ifodalang.

a)  $\underline{53} - 30 = 23$

b)  $60 + \underline{33} = 93$

d)  $80 + \underline{15} = 95$

e)  $\underline{59} - 30 = 29$

**2-topshiriqda** jadvaldagi bo'sh kataklar to'ldirilib, daftarlarga yoziladi. Ushbu topshiriq ham yozma bajarilib, o'quvchilar baholanadi. Bunda “Zukko matematik” o'yinidan foydalanish mumkin.

Qo'shiluvchi	30	50	70	Kamayuvchi	43	56	94
Qo'shiluvchi	55	29	22	Ayiriluvchi	20	40	60
Yig'indi	85	79	92	Ayirma	23	16	34

3- topshiriqdagi masala ham quyidagicha bajariladi.

Bir avtobus o'z yo'nalishi bo'yicha 25 ta bekatda to'xtab o'tadi. Ikkinchi avtobus esa, unda 10 ta kam bekatda to'xtab o'tadi. Ikkinchi avtobus jami nechta bekatda to'xtab o'tadi.

Ushbu masala ham yozma bajariladi.

$$25 - 10 = 15 \quad \text{demak, javob 15ta}$$

### O'qituvchining kuzatishlari

O'quvchilar misol va masaladagi yechimlarni daftariga yozadi va noma'lumni topishda ma'lum sonlardan foydalanadi.

### VI .Darsga yakun yasash (butun sinf) 5 daqiqa

Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash. Dars so'ngida o'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra baholanadi va g'olib guruh aniqlanib, rag'batlantiriladi.

**Darsga yakun yasash.**

**Uyga vazifani tushuntiring.**



**4.Noma'lum kamayuvchi va qo'shiluvchini toping.**

a) \_\_\_\_ - 10 = 17

b) \_\_\_\_ + 20 = 64

d) \_\_\_\_ + 30 = 73

e) \_\_\_\_ - 30 = 22

**5.Masala yeching.**

Dinora birinchi kun 43ta ro'mol, ikkinchi kuni birinchi kundandan 13ta kam ro'mol tikdi. Dinora ikkinchi kuni nechta ro'mol tikdi.